



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI TAHLILI

Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich

"O'zR IIV Birlashgan tahririyati" DM bosh hisobchisi

jabdurazzoqov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozori ishtirokchilari faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek milliy sug'urta bozorini takomillashtirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta faoliyati, sug'urta tashkiloti, sug'urta bozori, sug'urta bozorini professional ishtirokchilari, sug'urta agentlari, sug'urta to'lovi, sug'urta mukofati.

Abstract: This article analyzes ways to improve the processes related to the organization of a favorable investment environment for the improvement of investment activities of insurance organizations.

Keywords: insurance activity, insurance organization, investment opportunities of insurance organization, investment environment, investment attractiveness, legal basis of investment activity in insurance.

Абстрактный: В данной статье анализируются пути совершенствования процессов, связанных с организацией благоприятной инвестиционной среды для улучшения инвестиционной деятельности страховых организаций.

Ключевые слова: страховая деятельность, страховая организация, инвестиционные возможности страховой организации, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, правовые основы инвестиционной деятельности в страховании.

Kirish (Introduction /Введение).

Mamlakat iqtisodiyotini takomillashtirishda moliya bozorlarining o'rni muhim bo'lib, aynan moliya bozorining bir qismi hisoblanuvchi sug'urta bozori mamlakatdagi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, hayoti, sog'lig'i va tadbirkorlik faoliyatida uchrab turuvchi turli xavf-xatarlar ortidan keladigan moddiy yo'qotishlarni qisman yoki to'liq qoplashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta bozorida sug'urta xizmatlarini sotuvchisi vazifasini sug'urta xizmatlarini taklif etuvchi sub'yekt bu sug'urtalovchi ya'ni sug'urta tashkiloti amalga oshiradi. Sug'urta xizmatlariga real talabi mavjud bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar sug'urtalanuvchi sifatida sug'urta bozori ishtirokchisiga aylanadi. Shuningdek sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi manfaatlarini kesishishida vositachilik xizmatlarini amalga oshiruvchi sug'urta brokerlari va sug'urta agentlari o'ziga xos vazifalarni amalga oshirishlari orqali sug'urta bozori professional xizmatlarni amalga oshiradilar.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar sug'urta bozorlarida so'nggi yillarda sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari tahliliga ko'ra dunyo bo'yicha 2022-yilda yig'ilgan yalpi sug'urta mukofotlari taxminan 6,8 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Ushbu yig'ilgan sug'urta mukofotlarini asosiy qismi AQSH va Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarning ham ulushi yuqori bo'lgan [3].

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi. (Literature review, Анализ литературы).

Sug'urta bozorlaridagi vaziyat va sug'urta bozorlari ko'rsatkichlari bilan bog'liq o'zgarishlar haqida juda ko'p olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, O'zbekistonlik olim I.Abduraxmonov "Sug'urta bozori: zamonaviy holat va rivojlanish tendensiyalari" deb nomlangan ilmiy maqolasida sug'urta bozori haqida quyidagi fikrlarni keltirgan, "rivojlangan sug'urta tizimi yoki sug'urta bozori davlatni kutilmagan holatlar tufayli kelib chiqadigan qo'shimcha moliyaviy xarajatlardan ozod qiladi. Shuningdek, sug'urta bozorida sug'urta innovation funksiyani amalga oshiradi, texnik taraqqiyotni

rivojlantirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashni kafolatlash orqali jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga yordam berishi bilan boshqa moliyaviy bozorlardan ajralib turadi"[1].

Sug'urta sohasida faoliyat olib borayotgan professor Q.Qo'ldoshev o'zining "O'zbekiston sug'urta bozori: rivojlanish yo'nalishlari va muammolar" deb nomlangan ilmiy maqolasida, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini turli kutilmagan hodisalardan moddiy himoyalash maqsadida mikrosug'urta xizmatlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish orqali O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirish bo'yicha taklif berganligini ko'rishimiz mumkin [2].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/ Методы).


Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashirish, iqtisodiy-statistik va qiyosiy tahlil usullaridan ham samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis/ Анализ).

Sug'urta bozorida sug'urtalanuvchining manfaatlariga mos keladigan va sug'urtalanuvchini to'liq naflantiradigan sug'urta mahsulotlari ochiq raqobat sharoitidan kelib chiqib sug'urtalovchi tashkilotlar tomonidan taklif etish prinsipi mavjud bo'lib, ushbu prinsip ba'zi rivojlanayotgan milliy sug'urta bozorlarida kamayib borishi kuzatiladi.

Sug'urta bozorini shaffofligi tushunchasi mavjud bo'lib, shaffoflik va erkin raqobat sug'urta bozorini bezovchi omillar hisoblanadi. Sug'urta bozorida ishtirok etayotgan sug'urta tashkilotlarini sug'urtalanuvchilarga taklif etayotgan sug'urta xizmatlarining ta'rif stavkalari sug'urtadagi xavf-xatarlarni baholash meyorlariga asosan ishlab chiqilishi ya'ni sug'urta xizmatlarining narxi real holatdan kelib chiqishi zarur bo'lib, barcha milliy sug'urta bozorlari ham sug'urta xizmatlarini narxi meyor darajasida shakllanmasligi oqibatida sug'urtalanuvchilarning naflanish darajasini pasayishiga olib keladi.

Moliya bozorini bir qismi hisoblanuvchi sug'urta bozorida ishtirok etuvchi sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etilishida sug'urta vositachilarining o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, sug'urta vositachilari tomonidan olib borilgan professional xizmatlar uchun haqni sug'urtalanuvchilar yoki sug'urtalovchilar to'lab borishi begilab qo'yilgan. O'zbekiston sug'urta bozorida shafoflik va erkin raqobat mavjud bo'lishi uchun sug'urta faoliyatini tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi davlat organi tomonidan sug'urta bozori barcha meyorlarga mos kelgan holda tashkil etilishi zarur. O'zbekiston sug'urta bozori ko'rsatkichlarini 2023-2024 yillar yakuni bo'yicha tahlil qilish orqali sug'urta bozoridagi o'zgarishlar va muammolarga baho berishimiz mumkin. Sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug'urta tashkilotlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlarini sug'urta xodisalar uchun to'lab berilgan to'lovlar o'rtasidagi nisbati rivojlanayotgan sug'urta bozorlaridagi ko'rsatkichlarga yaqin bo'lishi zarur.



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida mukofotlar va to'lovlar ko'rsatkichlari [4].

O'zbekiston sug'urta bozorida 2024 yil yakunlariga ko'ra 7 trillion so'mlik sug'urta mukofotlari yig'ilgan bo'lib uning 91 foizi umumiy sug'urta tarmog'iga to'g'ri kelgan. Ushbu yilda jami sug'urta mukofotlarining 6 foizi majburiy sug'urta hissasiga to'g'ri kelib, hayot sug'urta tarmog'ida 2 foiz sug'urta mukofotlari yig'ilgan. Sug'urta mukofotlarining necha foizi sug'urta to'lovlariga to'langanligi sug'urtalanuvchilarning naflanganligini bildiradi. Rivojlanayotgan Hindiston sug'urta bozorida 2022-2024 yillarda umumiy sug'urta tarmog'ida yig'ilgan jami sug'urta mukofotlarining 80 foizi sug'urta xodisalar uchun sug'urta to'lovi sifatida to'lab berilgan. Rivojlanayotgan Belarussiya sug'urta bozorida 2024 yilda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 55 foizi sug'urta to'lovi sifatida to'lab berilgan. Rivojlangan Yaponiya AQSH va Yevropa sug'urta bozorlarida bu ko'rsatkich yanada balandroq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozorida 2022-2024 yillar oralig'ida sug'urta mukofotlarining sug'urta xodisalar uchun to'lov sifatida to'langan ulushi 25,1 foizdan 20,7 foizga qadar pasaygan. Bu asosan hayot sug'urtasi segmentidagi to'lovlarining kamayishi bilan bog'liq, chunki hayot sug'urta tarmog'i endigina davlat tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llanganligi uchun rivojlanib borayotgan bir vaqtda soliq imtiyozlari bekor qilinganligi sababli rivojlanishdan to'xtab qolgan. Shuningdek 2024 yilda majburiy sug'urtaning jami sug'urtadagi ulushi ortganligini ko'rishimiz mumkin, ushbu yo'nalishda taransport vositasi egalari uchun uchunchi shaxs oldidagi javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta xodisalarini aniqlash va to'lashda yevroprotokolni keng qo'llab boshlanganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sug'urta bozorida sotuvchi va xaridorni manfaatlarini kesishishida muhim rol bajaruvchi sug'urta vositachilarining o'ziga xos o'rni mavjud. O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishida sug'urta agentlari va sug'urta brokerlarini faoliyatiga nazar tashlasak, 2023 yilda jami sug'urta agentlari soni 4773 tani tashkil etib shundan 1543 tasi yuridik shaxs sifatidagi sug'urta agentlari hisoblanadi. Sug'urta agentlari soni va ularni qanchalik samaradorlik ko'rsatkichiga ega ekanligi sug'urta bozorini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 01.02.2003 yilda ro'yxatdan o'tgan buyrug'i, ro'yxat raqami 1213 ga asosan "Sug'urta agentlari to'g'risidagi nizom" tasdiqlangan bo'lib ushbu nizomda sug'urta

agentining xizmat xaqi, sug'urta agentlari orqali tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tashkilotiga kirim bo'lgan sug'urta mukofotining 25 foizidan oshmasligi belgilab qo'yilgan. Ushbu nizom rasmiy davlat tili o'zbekitili qilib belgilab qo'yilgan O'zbekistonda yaratilgan bo'lsa-da, hanuzga qadar rus tilidagi holda ishlatilib kelinmoqda. Xolbuki O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi" 21.12.1995 yildagi 167-I-son Qonuning 8-moddasida, "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi" deb belgilab qo'yilgan lekin hanuzga qadar sug'urta qonunchiligidagi "Sug'urta agentlari to'g'risidagi nizom" rus tilida mavjud bo'lib o'zbek tilidagisi mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.08.2019 yildagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorda "Sug'urta agentlari to'g'risidagi nizom"ni qayta ishlab chiqish va unda quyidagilarni inobatga olish belgilangan:

sug'urta agentlari faoliyatini tashkil etish va tartibga solishning zamonaviy metodlarini joriy qilishni;

sug'urtalovchilar va sug'urta agentlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini joriy qilishni;

sertifikatlangan sug'urta maslahatchilari va firma sug'urta agentlari institutlarini tashkil qilishni [5].

O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta agentlari faoliyatini huquqiy asoslarini 2019 yildan buyon o'zgartirish zaruriyati bo'lsa-da, haliga qadar bu o'zgarish amalga oshirilmadi. Sug'urta bozorida sug'urta agentlari faoliyati xalqaro standartlar va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi inobatga olingan holda mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarga mos holda qaytadan tashkil etilishi kerak. Sug'urta tashkilotlarini boshqaruv jarayonida chiqib kelayotgan ko'pgina muammolar aynan sug'urta agentlari va ularning agentlik siylovi bilan bog'liq.

Sug'urta bozoriturilishi	30.09.2023	30.09.2024	O'zgarish (+/-)
Sug'urta tashkilotlari soni	42	35	-16,7%
shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha	8	5	-37,5%
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so'mda)	2 311 521	2 559 944	+10,7%
Sug'urta brokerlari soni	8	11	+37,5%
Aktuariyalar soni	5	5	0%
Sug'urta agentlari soni	4 773	4 538	-4,9%
shu jumladan yuridik shaxslar	1 543	1 494	-3,2%
To'lovlarini kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	27	25	-7,4%

2-rasm. O'zbekiston sug'urta bozori tuzilishi [6].

Sug'urta sohasini davlat tomonidan nazorat qilish va takomillashtirib borish amaliyoti barcha mamlakatlarda mavjud bo'lib, O'zbekistonda sug'urta sohasini nazorat qiluvchi davlat organi mustaqillikdan so'ng Moliya vazirligi huzurida inspeksiya sifatida tashkil etildi va bu davlat organi 2019 yilda kengayib Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi sifatida takomillashtirildi. Sug'urta bozorini rivojlantirish va sug'urta sohasini nazorat qilish jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 sentabrda PQ-291-son "Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori ishlab chiqildi va bu qarorga asosan sug'urta sohasini nazorat etuvchi organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi belgilandi. O'zbekistonda sug'urta sohasini takomillashtirish va nazorat qilish jarayonini rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlar tajribasini ham hisobga olinishi ijobiy holatni keltirib chiqaradi.

Sug'urta bozorini takomillashtirishda sug'urta brokerlari, sug'urta anderrayerlari va sug'urta aktuariyalar faoliyati ham rivojlanishi zarur. O'zbekiston sug'urta bozorida 2024 yil yakunlariga ko'ra 5 ta sug'urta aktuariysi faoliyat olib borgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022 yildan beri o'zgarishsiz qolmoqda.

Sug'urta bozorida sug'urta vositachisi hisoblanuvchi sug'urta brokerlari sug'urtalanuvchidagi mavjud xavf-xatarlarni sug'urtalovchiga yo'naltiruvchi professional ishtirokchi hisoblanadi. O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat olib borayotgan sug'urta brokerlari soni 2023 yilda 8 tani

tashkil etgan bo'lib 2024 yilda bu ko'rsatkich 11 tani tashkil etib 37,5 foizga oshganligini ko'ramiz. Bu holat sug'urta bozorida sug'urta brokerlari o'rtasida sog'lom raqobatni va sug'urtalanuvchilarni yanada ko'proq sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirilishigi sabab bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish va sug'urta bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini kengaytirish uchun yagona elektron sug'urta platformasini yaratish (InsurTech) zarur. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta shartnomalari turli platforma va shakllarda tuziladi agarda hamma sug'urta kompaniyalari uchun yagona raqamli platforma amaliyotga joriy etilsa sug'urtalanuvchilar uchun sezilarli yengillik bo'ladi va sug'urta xizmatlarini raqamlashish jarayoni yanada tezlashadi. Rivojlangan AQSH va Angliya sug'urta bozorlarida

ushbu yagona platforma InsurTech modellari o'z samaradorligini isbotlagan.

O'zbekiston sug'urta bozorini takomillashtirishda sug'urtalanuvchilarning sug'urta madaniyati va bilimlarini oshirish juda muhim omillardan biridir, aholi o'rtasida sug'urta bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni kengaytirish maqsadida maktab va oliy ta'lim muassaslarini o'quv dasturlariga "Sug'urta savodxonligi" fanini joriy etish zarur. Dunyo amaliyotidan ma'lumki, OECD davlatlarida moliyaviy savodxonlikni erta yoshdan oshirish sug'urtaga bo'lgan real talabni oshishiga sabab bo'lgan. Ommaviy axborot vositalari orqali sug'urta mavzusini targ'ib qilish uchun davlat grantlarini ajratish bilan bog'liq chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak, shuningdek mamlakatning barcha hududlarida "Sug'urta maslahat markazlari"ni tashkil etish orqali sug'urtaga bo'lgan qiziqish va naflanishni targ'ib etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Abduraxmonov, Ilyos. "Sug'urta bozori: zamonaviy holat va rivojlanish tendensiyalari." Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 2.4 (2024): 309-319.
2. Qo'ldoshev, Qamariddin. "O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA MUAMMOLAR." Straxovoy ryok Uzbekistana 1.4 (2023): 1-4.
3. <https://www.statista.com/markets/414/topic/461/insurance/#statistic>
4. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im>
5. <https://lex.uz/en/docs/4459802>
6. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im>